



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARGA SIFATLI TA'LIM BERISHDA TARBIYALACHILAR MAHORATI

Turdiyeva Navbahor Bolta qizi

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi
4-sonli DMTT metodisti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8304190>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-August 2023 yil
Ma'qullandi: 28-August 2023 yil
Nashr qilindi: 31-August 2023 yil

KEY WORDS

prezident qarori, nizom, o'quv dasturi, tarbiyachining nutq madaniyati, tarbiyaning yo'nalishlari

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilarning o'quvchilarni tarbiyalash usullari haqida ma'lumot berilgan.

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini tadbiiq qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi uning nutqi quyidagi hususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak.

a) nutqning tug'riligi

b) nutqning aniqligi

v) nutqning ifodaliligi.

g) nutqning sofligi

d) nutqning ravonligi

j) nutqning boyligi

Tarixdan ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi bilan birgalikda tarbiyalash dasturi ham takomillashib boradi. Maktabgacha muassasalar ishini tashkil etish, uning mazmuni va metodlari yuzasidan asosiy ko'rsatmalar 1919 yilda Maorif xalq kommissiyalarining maktabgacha tarbiya bo'limining vazifasi «Oila o'chog'i va bolalar bog'chasini yuritish yuzasidan instruksiya»da bayon qilib berilgan edi. Maktabgacha tarbiya sifatini yaxshilash uchun bolalar bog'chasining ishining ilmiy asoslangan dasturini yaratish katta ahamiyatga ega bo'ldi. Programmaga oid har bir xujjat muayyan tarixiy bosqichda vujudga keldi va maktabgacha tarbiya nazaryasi va amaliyoti rivojlanishining tegishli bosqichini aks ettiradi.

1-bo'lim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim tarbiyaning maqsad va vazifalari. 2-bo'lim. Ta'lim tarbiyaning asosiy yo'nalishlari. Bu bo'lim o'z navbatida quyidagi qismlardan iborat. 1) bolalarni jismoniy rivojlantirish. 2) bolalarni nutq va tafakkurini rivojlantirish. 3) ma'naviy va madaniy etuklik. 3-bo'lim. Bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. Bu bo'limni qismlari. 1) jismoniy rivojlanganlik darajasi 2) nutq va tafakkurni rivojlanganlik darajasi 3) ma'naviy va madaniy yetuklik. Tarbiyachi yosh avlodni halqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun halq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z maxoratini doimo faollashtirib bori shva hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka xayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va engil qiladi. O'qituvchi tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga xurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagoga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarga chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tam oyillariga muvofiq tashkil qiladi.

Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har

tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning histuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi.

Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi m um kinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedagog doim iy ravishda kasbiy kom petentligini takom illashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, otanalarning va mahalliy jam oatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.



Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohasiga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.

1. Davlat talablari bolaning quyidagi rivojlanish sohalari bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

bilish jarayonini rivojlanishi;

ijodiy rivojlanish.

2. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi

kichik sohalarga bo'linadi:

yirik motorika;

mayda motorika;

sensomotorika;

sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

3. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi: "Men" konsepsiyasi;

hissiyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

4. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

nutq va til;

o'qish malakalari;

qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

12. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

intellektual-anglash malakalari;

elementar matematik malakalar;

tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

5. "Ijodiy rivojlanish" soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

dunyoni badiiy tasavvur etish;

badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

6. Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha);

erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);

kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);

o'rta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);

katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);

maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

7. Ilk yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 1- ilovasida belgilangan.

8. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar mazkur Davlat talablarining 2-ilovasida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kovalev A. G. Shaxsiyat o'zini o'zi tarbiyalaydi. / A.G. Kovalev - M., "Iris-press", 1993 yil
2. Huquqiy pedagogika: darslik / K. M. Levitan. - M.: Norma, 2008 yil.
3. Amonashvili Sh.A. Pedagogik kasbning shaxsiy-insoniy asoslari. -Minsk, 1990.-27-bet
4. (<http://reihorn.narod.ru/>)
5. <https://minikar.ru/uz/moda-i-krasota>